

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INTIZOMIY TARBİYANI SHAKLLANTIRISHDA STEAM YONDASHUVINING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

PANJIYEVA MUATTAR XXX

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: muattar9293gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20636834>

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, intizomiy tarbiya, STEAM yondashuv, nazariy-metodik asoslar, integratsiyalashgan ta'lim, fanlararo bog'liqlik, loyihaviy ta'lim, o'z-o'zini boshqarish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida intizomiy tarbiyani shakllantirishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Math) yondashuvining nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Maqolada an'anaviy intizomga majburlash usullaridan voz kechib, fanlararo integratsiya va loyihaviy ta'lim orqali o'quvchilarda ichki tartib, mas'uliyat hamda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Keywords: primary school students, disciplinary education, STEAM approach, theoretical and methodical foundations, interdisciplinary integration, project-based learning, self-regulation.

Abstract: This article highlights the theoretical and methodical foundations of the STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Math) approach in forming disciplinary education among primary school students. Instead of traditional methods of enforcing discipline, the article analyzes the possibilities of developing internal order, responsibility, and self-regulation skills in students through interdisciplinary integration and project-based learning.

KIRISH

Boshlang'ich ta'limda intizomiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari, xususan, STEAM ta'lim texnologiyasi imkoniyatlari o'zbek olimlarining ilmiy qarashlari asosida tahlil qilinadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, Milliy o'quv dasturi talablari hamda umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini innovatsion asosda takomillashtirishga doir qarorlar boshlang'ich sinflarda intizomiy tarbiyani yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish zaruriyatini ilmiy asoslaydi.

Mahalliy pedagog olimlar — M. Ochilov, N. Sayidahmedov, Sh. Sharipov, N. To'xtashev, U. Nishonov, A. Jabborovlarning tadqiqotlarida intizomiy tarbiya o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning asosiy komponenti sifatida talqin etiladi. O'zbek metodistlarining fikricha, ijobiy intizom, tizimli sinf boshqaruvi, o'qituvchining innovatsion-pedagogik kompetensiyasi va o'quv jarayonini fanlararo integratsiya asosida samarali tashkil etish boshlang'ich sinfdagi intizomning mustahkam shakllanishini belgilovchi yetakchi omillardir.

Xususan, N. Sayidahmedov (2020) zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning intizomiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi, bu esa bevosita STEAM yondashuvining loyihaviy o'qitish metodikasi bilan hamohangdir. M. Ochilovning tadqiqotlarida esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyat, o'zini boshqara olish va jamoada faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari yoritiladi. Aynan STEAM muhitidagi jamoaviy va amaliy faoliyat o'quvchilarda majburiy intizomni emas, balki M. Ochilov ta'kidlagan ichki mas'uliyat va ongli intizomni (o'z-o'zini boshqarishni) tabiiy ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Sh. Sharipov va A. Jabborovlarning ijobiy intizom prinsiplari hamda hamkorlikka asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim g'oyalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida intizomiy tarbiyani shakllantirishda STEAM yondashuvining nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy olimlarning fikricha, intizomiy tarbiya tazyiq ostida emas, balki o'quvchini fanlararo loyihalarga jalb qilish, rag'batlantirish va STEAM muhitiga xos bo'lgan jamoaviy ijodkorlik jarayonida tabiiy ravishda shakllanishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich ta'lim bosqichida intizomiy tarbiyani samarali tashkil etish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi hamda ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun alohida ahamiyatga ega. Intizom o'quvchilarda o'zini boshqarish, mas'uliyatni his etish, ijtimoiy qoidalarga rioya qilish, jamoada munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Shundan kelib chiqib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari va loyihaviy ta'lim elementlarini dars jarayoniga tatbiq etish intizomiy tarbiya samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmonida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagogik jarayonga ilg'or ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish, o'quvchilarda bilim olish madaniyati va intizomni rivojlantirish zarurligi belgilangan¹. 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son Qarorda esa umumta'lim maktablarida tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, o'quvchilarda tartib-intizomni mustahkamlash uchun innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha amaliy vazifalar belgilangan [2]. Ushbu hujjatlar boshlang'ich ta'limda intizomiy tarbiyani zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanini ko'rsatadi.

Mahalliy pedagog olimlar tadqiqotlarida intizomiy tarbiyaning zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'un holda tashkil etilishi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. A. Xoliqov intizomiy tarbiyani samarali tashkil etishda o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi, didaktik texnologiyalarni to'g'ri tanlashi, dars jarayonida ijodkorlik bilan yondashishi muhim omil ekanini ta'kidlaydi [3]. N. Yuldasheva esa interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda ijobiy intizom, faollik, mustaqil fikrlash va jamoada o'z o'rnini topish kabi kompetensiyalarni shakllantirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi [4]. Bu yondashuvlar o'quvchini tarbiya jarayonining passiv emas, balki faol subyekti sifatida shakllantiradi.

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida intizomiy tarbiyani zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketalashtirish, pedagogik eksperiment va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari uchun 3-4-sinf o'quvchilaridan iborat tajriba va nazorat guruhleri shakllantirildi.

Eksperiment davomida interfaol metodlar (Klaster, Aqliy hujum, Rol o'ynash), axborot texnologiyalari (multimedia taqdimotlari, videodarslar) hamda loyihaviy topshiriqlar asosida darslar tashkil etildi. O'quvchilarning xulq-atvori, dars jarayonidagi faolligi, topshiriqlarni bajarish sifati hamda javoblari tahlil qilinarkan ekan, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tartib-intizom, mas'uliyat, o'zini boshqarish ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar — ijobiy intizom, o'quvchi shaxsini rivojlantirish, samarali sinf boshqaruvi va interfaol metodlardan foydalanish —

boshlang'ich ta'limda intizomiy tarbiyani mustahkam shakllantirishda asosiy metodik vosita hisoblanadi

Ta'lim modernizatsiyasi shaxsni o'qitish va tarbiyalashning eng yaxshi an'alarini saqlab qolgan holda ularni boyitish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon ta'lim tizimining barcha bosqichlarini qamrab olib, jamiyatning malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda intizomiy tarbiya, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va texnik tafakkurni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda STEAM ta'lim tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida bir qator ustuvor vazifalar hal etilishi ko'zda tutiladi:

- har bir shaxsning teng huquqli va ochiq ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash;
- ta'limning barcha bosqichlarida yangi sifat ko'rsatkichlarini joriy etish;
- ilmiy yangiliklar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish va ulardan samarali foydalanish uchun me'yoriy-huquqiy hamda tashkiliy-iqtisodiy asoslarni yaratish;
- pedagoglarning kasbiy faoliyati va huquqiy me'yorlarini davlat hamda jamiyat hamkorligida takomillashtirish;
- ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ota-ona hamda ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim jarayonida tayyorlanayotgan mutaxassislarga faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, texnik ko'nikmalarini shakllantirish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda innovatsion g'oyalarni amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu esa, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida STEAM yondashuvini samarali joriy etish orqali o'quvchilarda intizom, ijodkorlik va texnik tafakkurni shakllantirishni dolzarb vazifa sifatida belgilaydi.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intizomiy tarbiyasini samarali tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalardan maqsadli foydalanish o'quvchilarni dars jarayonida tartib-intizomga rioya qilish, mas'uliyatni chuqur his etish, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, o'zini-o'zi boshqarish hamda jamoa bilan uyg'unlikda ishlash kabi muhim ko'nikmalarga ega bo'lishiga yordam beradi.

Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion vositalarning tatbiqi darslarni yanada qiziqarli, mazmunli va dinamik o'tishini ta'minlab, o'quvchilarda darsga nisbatan ichki motivatsiya va ijobiy intizomni shakllantiradi. Natijada o'quvchilar o'zining xulq-atvori, vazifalarni bajarish sifati va ta'lim jarayonidagi faolligi uchun mas'uliyatni ongli ravishda o'z zimmasiga oladi.

Umuman olganda, zamonaviy ta'lim texnologiyalari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun intizomiy tarbiya jarayonini samarali, mazmunli va natijador tashkil etishning kuchli metodik asosini yaratadi.

Xulosalar

1.Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining intizomiy xulq-atvorini shakllantirish va mustahkamlashda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda mas'uliyat hissi, o'zini-o'zi boshqarish, muloqot va hamkorlik kabi muhim kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan darslar o'quvchilarning diqqatni jamlash, vaqtni rejalashtirish hamda topshiriqlarni ketma-ket bajarish ko'nikmalarini kuchaytiradi.

4. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarni qoidalarga rioya qilish, tartibni saqlash, mustaqil qaror qabul qilish va o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni sezish kabi sifatlarni shakllantirishga undaydi.

Amaliy tavsiyalar

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari intizomiy tarbiyani samarali tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlardan keng foydalanishlari lozim.

2. Har bir dars jarayonida intizomiy qoidalarni mustahkamlashga qaratilgan loyihaviy topshiriqlar, o'yinli mashg'ulotlar va reflektiv faoliyat turlari joriy etilishi tavsiya etiladi.

3. O'quvchilarda intizomiy ko'nikmalarni shakllantirish va o'z-o'zini boshqarish madaniyatini rivojlantirish uchun raqamli vositalar — interaktiv taxta, elektron testlar, multimedia taqdimotlari va videodarslardan samarali foydalanish zarur.

4. Sinf boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchilar uchun zamonaviy metodik qo'llanmalar, o'quv-metodik tavsiyalar va dars ishlanmalari ishlab chiqilishi va amaliyotga keng joriy etilishi maqsadga muvofiq.

5. Intizomiy tarbiya jarayonida ota-onalar ishtirokini faollashtirish, maktab-oila hamkorligini mustahkamlash, intizomiy odatlarni uy sharoitida ham qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi." Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son Qarori. Umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish to'g'risida. Toshkent.
3. Jo'rayev T. Boshlang'ich ta'limda intizomiy tarbiya metodlari. Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2019.
4. Karimova Sh. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar samaradorligi. Toshkent: "Ilm-fan" nashriyoti, 2020.
5. Xoliqov A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida intizomiy tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. Toshkent, 2018.
6. Yuldasheva N. Interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida intizomiy tarbiyani rivojlantirish. Toshkent, 2021.
7. Abdullayev M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy intizomini rivojlantirish metodikasi. Toshkent, 2020.
8. Ergashev S. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va sinf boshqaruvi. Toshkent, 2019.
9. Raxmatov B. Pedagogik kompetensiya va o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion

yondashuvlar. Toshkent, 2021.

10. Muattar P. (2025). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ tafakkurini shakllantirish omillari. *ACUMEN: International journal of multidisciplinary research*, 2(5), 76-82.

